

*Davletyorova Dilafruz Davronbek qizi*  
*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*  
*“Geografiya” yo’nalishi 2-bosqich talabasi*  
*O‘zbekiston*

## **XORAZM VILOYATI IQTISODIYOT TARMOQLARI RIVOJLANISHI**

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada Xorazm viloyatining iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishining ko‘rsatkichlari, iqtisodiyot sohalarining viloyat YAHMga ta’siri, iqtisodiyot tarmoqlarining istiqbolda rivojlanish yo‘nalishlari yoritib berilgan.

*Kalit so‘zlar:* YAHM, iqtisodiyot, sanoat tarmoqlari, tog‘-kon, qishloq xo‘jaligi, turizm.

*Давлетёрова Дилафруз Давронбек кизи*  
*Студент 2-го курса направления «География»*  
*Ургенчского государственного университета имени Абу Райхан Берунии*  
*Узбекистан*

## **РАЗВИТИЕ ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ**

*Аннотация.* В статье рассматриваются показатели развития отраслей экономики Хорезмской области, влияние отраслей экономики на ВВП региона, а также перспективные направления развития отраслей экономики.

*Ключевые слова:* ВРП, экономика, промышленность, горнодобывающая промышленность, сельское хозяйство, туризм.

*Davletyorova Dilafruz Davronbek qizi*  
*2nd stage student of Geography of Urgench State University*  
*named after Abu Raykhan Beruni*  
*Uzbekistan*

## **DEVELOPMENT OF ECONOMIC SECTORS OF KHORAZM REGION**


*Abstract.* In this article, indicators of the development of economic sectors of the Khorezm region, the influence of economic sectors on the region's economic development, directions of future development of economic sectors are highlighted.

*Key words:* GDP, economy, industrial sectors, mining, agriculture, tourism.

Xorazm viloyati O‘zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi so‘nggi yillarda sezilarli darajada jadallashib kelayotgan viloyatlardan biri hisoblanadi. Viloyat o‘zining sanoati, qishloq xo‘jaligi va turizm salohiyati bilan ajralib turadi. Viloyatda aholining turmush darajasini oshirish, infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Xorazmning tabiiy resurslari va iqtisodiy geografik o‘rni iqtisodiy o‘sishga zamin yaratadi.

Xorazm viloyatida iqtisodiyot tarmoqlari jadal rivojlanib kelmoqda. Jumladan, yalpi hududiy mahsulot (YAHM), sanoat, qishloq xo‘jaligi, turizm tapmoqlari keng rivojlanmoqda.

Viloyat iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o‘sish sur‘atlari YAHM o‘sishida asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Jumladan, 2024-yilda YAHM tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasining ulushi 34,8 foizni tashkil qilgan va 2023-yilga (37,8 %) nisbatan 3,0 punktga kamaygan. Sanoat tarmog‘ining (qurilishni qo‘shgan holda) ulushi 24,9 foizni tashkil qilib, 2023-yilga (23,6 %) nisbatan 1,3 punktga ko‘pdir. Xizmatlar sohasi ulushi 40,3 foizni tashkil qilgan va o‘tgan yilga (38,6 %) nisbatan 1,7 punktga ko‘paygan (1-rasm.).



1-rasm. Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo‘yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda 2024-y.)

Xorazm viloyati sanoat tarmoqlari rivojlanish xususiyatlari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, viloyat sanoat tarmoqlar tarkibini rivojlantirishda va sanoat korxonlarini hududiy tashkil etishda viloyatning foydali mineral qazilma resurslari deyarli yo‘qligi, ammo qishloq xo‘jaligining intensiv rivojlanganligi, mehnat resurslarining yuqoriligi, ekologik vaziyatning og‘irligi hisobga olinishi zarur.

Viloyatda 2024-yilda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 6,2 mlrd so‘m, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmi 28 086,4 mlrd so‘m, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash 821,5 mlrd so‘m va suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 186,0 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o‘shining asosiy omili bo‘lib, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning 92,5 foizga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 108,7 foizga, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashning 101,9 foizga va suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 94,1 foizga o‘shisi kuzatilgan.

#### 1-jadval

##### Xorazm viloyati sanoat ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari (2024 y.)

Shahar va tumanlar nomi	Sanoat ishlab chiqarishda hududlarning ulushi foizda	2023-yilga nisbatan ishlab chiqarish indeksi, %
Urganch sh.	14,4	105,3
Xiva sh.	1,4	107,6
Bog‘ot	2,3	106,1
Gurlan	2,1	107,2
Qo‘shko‘pir	2,2	110,6
Urganch	4,7	107,8
Hazorasp	2,1	106,1
Tuproqqal’a	48,3	106,7
Xonqa	3,6	108,1
Xiva	1,8	110,2

Shovot	3,5	107,3
Yangiariq	2,6	105,8
Yangibozor	2,8	108,7
Xorazm viloyati bo'yicha	100	108,2

**Manba: Xorazm viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari.**

Xorazm viloyati sanoat tarmoqlari rivojlanishini tumanlar kesimida tahlili shuni ko'rsatadiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Tuproqqal'a tumani 48,3 foiz, Urganch shahri 14,4 foiz, Urganch tumani 4,7 foiz, Xonqa tumani 3,6 foiz, Shovot tumani 3,5 foiz, Yangibozor tumani 2,8 foiz, Yangiariq tumani 2,6 foiz, Bog'ot tumani 2,3 foiz, Qo'shko'pir tumani 2,2 foiz, Gurlan tumani 2,1 foiz, Hazorasp tumani 2,1 fozi, Xiva tumani 1,8 foizni hamda eng past bo'lgan va Xiva shahri 1,4 foizni tashkil etganligini ko'rish mumkin (1-jadval).

Xorazm viloyati qishloq xo'jaligi sohasida 2024-yilda 28 490,6 mlrd. so'mlik qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilgan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2023- yilning mos davriga nisbatan 102,9 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 102,7 foizni va chorvachilik mahsulotlari 103,1 foizni tashkil qilgan.

Viloyatning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarning umumiy hajmida hududlar bo'yicha yetakchilik qilayotgan tumanlarning ulushi Urganch tumanida 11,0 foiz, Xonqa tumanida 10,6 foiz, Bog'ot va Shovot tumanlarida - 9,9 foiz, Qo'shko'pir tumanida 9,8 foiz, Gurlan tumanida 9,4 foizni tashkil etgan. Xiva shahri 0,3 foiz, Urganch shahri 2,1 foiz va Tuproqqal'a tumani 2,8 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egallaydi, eng kam ulush Xiva shahrida 0,3 foiz qayd etilgan.

2024-yilda 28 490,6 mlrd. so'mga teng bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilgan va ushbu hajmning 12 750,4 mlrd so'mga teng qismi yoki 44,8 foizi dehqonchilik, 15 740,2 mlrd so'mga teng qismi yoki 55,2 foizi chorvachilik sohasiga to'g'ri keladi. Ushbu yilda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari umumiy hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishda Tuproqqal'a tumani (56,8 foiz), Bog'ot tumani (52,8 foiz),

Xiva tumani (52,6 foiz) yuqori ko'rsatkich qayd etilgan. Urganch shahrida bu ko'rsatkich 4,8 foiz bo'lib, dehqonchilik mahsulotlari salmog'ining kamayganligi qayd etilgan. Shuningdek, chorvachilik mahsulotlari yetishtirishning yuqori ko'rsatkichlari Urganch shahrida (95,2 foiz), Xiva shahrida (70,5 foizi), Yangiariq tumanida (61,5 foiz) qayd etilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, viloyatda amalga oshirilayotgan islohot natijalari tezkor, aniq va haqqoniy statistik raqamlarda o'z ifodasini topadi. Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy isloh qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni manzilli ishlab chiqish viloyatning iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanish salohiyatini yuksaltirishga, uning hududiy tarkibini takomillashtirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. KOMILOVA, Nilufar, Rukhsora T. HUDAYBERGANOVA, Isabek B. MURTAZAEV, Hidoyathon O. ABDINAZAROVA, & Zafarjon H. MADAMINOV. " Economic and Geographic Problems of Improvement of Industrial Sectors and Local Structure of Uzbekistan." Journal of Advanced Research in Law and Economics [Online], 10.6 (2019): 1916-1928. Web. 19 Feb. 2025
2. Latipov, N., Komilova, N., Makhmudov, B., Berdiev, K., Moslemzadeh, M., Chulliyev, S., Murtazayev, I., & Hamroyev, M. (2024). Econometric modeling and forecasting of environmental conditions of cities and population health problems: Case study of Navoi and Zarafshan cities. Macedonian Journal of Ecology and Environment, 26(2), 169–181. <https://doi.org/10.59194/MJEE242621691>
3. Anthropogenic transformation of oasis landscapes in Khorezm Province, Uzbekistan: A geocological analysis. Abror Khaitbaev, Kuvondik Yarashev, Yunus Karimov, Maqsud Nazarov. E3S Web Conf. 497 02043 (2024). DOI: 10.1051/e3sconf/202449702043

4. Khamroev M.O., Khodjaeva G.A. Scientific and theoretical issues of urboekological research. Science and Education in Karakalpakstan. 2024 №3/2 ISSN 2181-9203

5. Khamroev M.O. Urgench State University, Urgench, Uzbekistan The urbanization process in Uzbekistan, urbo-ecological condition of cities. Центральноеазиатский журнал географических исследований № 3\4, 2024. SJIF 2022 = 5.998 ISSN 2181-2578